

## **TALABALARDA KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATNING IJTIMOIIY-AXLOQIY ME’YORLARINI O’RGATISH – PEDAGOGIK ZARURAT SIFATIDA**

*Ch.Shokirova*

*ADU, Pedagogika fakulteti dekani, p.f.n., dotsent*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarda kasbiy-pedagogik faoliyatning ijtimoiy-axloqiy me’yorlarini o’rgatish dolzarb muammo ekanligi, kasbiy yo’nalganlik, kasb standartlari, shuningdek talabalarda kasbiy-pedagogik faoliyatning ijtimoiy-axloqiy me’yorlarini o’zlashtirishda pedagogik etika qoidalarining o’rni xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so’zlar:** kasbiy-pedagogik faoliyat, ijtimoiy ahloqiy me’yor, xalqarostandart, kasb standarti, pedagog, intellektual salohiyat, oliy ta’lim, xulq-atvor.

**Annotation.** This article reflects on the fact that teaching the socio-moral standards of professional-pedagogical activity in students is an urgent problem, on professional orientation, professional standards, as well as on the role of the rules of pedagogical Ethics in mastering the socio-moral standards of professional-pedagogical activity in students.

**Base words and phrases:** professional-pedagogical activity, social moral standard, internationalstandart, professional standard, pedagogical, intellectual potential, higher education, behavior.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается актуальная проблема обучения студентов социально-этическим нормам профессионально-педагогической деятельности, рассматриваются особенности профессиональной ориентации, профстандарты, а также роль правил педагогической этики в усвоении учащимися социально-этических норм профессионально-педагогической деятельности.

**Базовые слова и выражения:** профессионально-педагогическая деятельность, социальная этическая норма, международный стандарт, Профессиональный стандарт, педагог, интеллектуальный потенциал, высшее образование, поведение.

“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonda keltirilganidek “Oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish” oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlaridan biriga aylandi. Pedagogik oliy ta’limda tayyorlanadigan pedagogik kadrlarning ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishida ijtimoiy-axloqiy me’yorlar hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilarining mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi va identitetligini rivojlantirish, ularda kasbiy-pedagogik faoliyatga doir huquqiy, ijtimoiy-axloqiy me’yorlarni shakllantirish oliy ta’lim tizimining funktsional vazifasi hisoblanib, halqaro va milliy talablardan kelib chiqqan holda tadqiq qilib borish dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-axloqiy me’yorlarni bilishi va o‘z faoliyatiga tadbiq etish borasidagi ko‘nikmalar o‘zini professional mukammallashtirish va tarbiyalash

uchun yetakchi komponent bo‘lib, “maqsadga muvofiq ma’lum tarzda amalga oshiriladigan pedagog umuminsoniy tajriba, pedagogik jarayonni takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan metodologik va maxsus bilimlar, kasbiy ko‘nikma va malakalar” tushuniladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili talabalarga ijtimoiy-axloqiy me’yorlarni o‘rgatish pedagogik-psixologik, ijtimoiy-gumanitar, me’yoriy-huquqiy, nazariy-amaliy, uslubiy jihatdan dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Talabalarda kasbni egallashning shakllanishi ularda majburiyat va javobgarlik hissining tarkib topishi bilan bog‘liq bo‘lib, ularda ana shunday sifat va kechinmalar to‘la shakllangan bo‘lsa, bilimlarni egallash yoki kasbiy kamolot uchun hech narsa to‘siq bo‘lmaydi.

Talabalarda kasbiy-pedagogik faoliyatga doir ijtimoiy-axloqiy me’yorlarni bilishi o‘zini pedagog sifatida o‘zini identifikatsiya qilish bosqichida namoyon bo‘ladi. Mazkur bosqich kasbiy-pedagogik faoliyat, ijtimoiy rolni bajarish va ijtimoiy-psixologik tizimidan iborat. O‘zini identifikatsiya qilish uch bosqichda: tayyorgarlik, asosiy va yakunlovchi bosqichlarda amalga oshiriladi. Tayyorgarlik bosqichida talaba egallamoqchi bo‘lgan kasbga taaluqli faoliyat turlarini aniqlashtiradi, o‘zining o‘rni va rolini aniqlashtiradi, o‘z xulq-atvorlari, odobi, ko‘zlagan maqsadlarini ro‘yobga chiqarishning vosita va usullarini asoslab, belgilab oladi. Asosiy bosqichda o‘zini nomoyon qilish maqsadlarini amalga oshiradi. Yakunlovchi bosqichda talaba o‘zini nomoyon etish sohasida erishgan natijalar baholanadi, qiyinchiliklarni sabablari aniqlanadi.

Kasbiy-pedagogik muvaffaqiyat bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-axloqiy me’yorlar hamda kasbiy yo‘nalganlik bilan mustahkam aloqadorlikka ega. M.I.Dyachenko, L.A.Kandibovich talabalarda kasbiy yo‘nalganlikni rivojlantirish bu bo‘lajak kasbga ijobiy munosabatni, unga qiziqish, layoqat va qobiliyatlarini mustahkamlash, oliy o‘quv yurtini tugatgandan so‘ng kasbiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirish istagi, tanlangan kasb sohasida doimiy mehnat faoliyatini olib borish asnosida o‘zining asosiy moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, bo‘lg‘usi mutaxassis ko‘z o‘ngida kasbning obro‘sini oshirishdir.

Kasbiy yo‘nalganlik mazmuni sifatida bo‘lajak kasbiy faoliyatini, majburiyatlarini, ijtimoiy-axloqiy me’yorlarini yaxshi bilishi, o‘z funktsional vazifalarini bajarishga intilish, mohir, yetuk mutaxassis sifatida o‘zini ko‘rsatish, murakkab o‘quv vazifalari, masalalarini aniq yechishga intilish, mas’uliyat hissining kuchayishi, ishda muvaffaqiyatga erishish istagidir. Shuningdek, talabalarning ijtimoiy burchga, o‘ziga, intilishlariga, hislariga munosabatining rivojlanishi bilan kasbiy motivlarning mazmuni o‘zgaradi. V.A.Sonin ilmiy tadqiqotida talabalarda kasbiy yo‘nalganlikning muvaffaqiyatli rivojlantirish omillaridan biri ularda kasb tanlashning ijobiy motivlarini shakllanganligi ekanligini ta’kidlab o‘tgan.

O‘zbekiston Respublikasida pedagogning maqomi tan olinib, ularning o‘z kasbiy faoliyatini yuritishi uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratilmoqda, ularning ijtimoiy himoyasi ta’minlanib va huquqlari amalga oshirilishi uchun kafolatlar qonun ta’minlanmoqda. Bu kafolat qonun hujjatlarida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi” to‘g‘risida Qonunida o‘z aksini topgan.

Pedagogning huquqlari, sha’ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro‘si ta’minlanishi bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-axloqiy me’yorlarni shakllanish mazmuni, jarayoni bilan uzviy bog‘liq.

Ma’lumki, pedagogning kasbiy faoliyati kasb standartlarida belgilanadi. Ish beruvchi esa pedagogning o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib beradi. Pedagogning kasbiy kompetentligining muhim tarkibiy qismlaridan biri o‘z faoliyatining ijtimoiy-axloqiy me’yorlarini bilishi bilan tavsiflanadi. Kasbiy-pedagogik faoliyatning ijtimoiy-axloqiy me’yorlarini ikkita nuqtai nazardan tahlil qilish mumkin. Birinchisi, jamiyatda pedagoglar faoliyati uchun belgilangan ijtimoiy-axloqiy me’yorlar bo‘lsa, ikkinchisi mazkur ijtimoiy-axloqiy me’yorlar pedagogik oliy ta’lim muassasalarida qay tarzda shakllantirilishi, uning metodik-kontseptual jihatlari hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, o‘qitish va tarbiya vositalarini hamda usullarini tanlash jarayoni tahlil qilinsa, mazkur jarayonda ham ijtimoiy-axloqiy me’yorlar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, kasbiy-pedagogik faoliyatga tegishli mualliflik dasturlarini va o‘qitish uslubiyotini ishlab chiqish va joriy etish, ijodiy faollik ko‘rsatish, shuningdek tegishli o‘quv fanlari, kurslari va modullaridan foydalanishda ham ijtimoiy-axloqiy me’yorlar mavjud. Pedagog sifatida ta’lim tashkilotini boshqarishda, shuningdek ta’lim tashkilotining faoliyati bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish ham ijtimoiy-axloqiy me’yorlarda o‘z aksini topadi.

Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy-axloqiy me’yorlarni o‘rgatish va bu bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish pedagogik ta’limning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Misol tariqasida o‘quvchilarni baholash jarayonida bir qancha ijtimoiy hamda axloqiy me’yorlar mavjud. Mazkur me’yorlarni bilmaslik yoki uni o‘z faoliyatiga tadbiiq eta olmaslik oqibatida o‘quvchilar, ota-onalar, hamkasblar bilan ziddiyatli vaziyatlarni keltirib chiqarish mumkin. Kasbiy-pedagogik faoliyati davomida o‘ziga birlashtirilgan sinfdagi (guruhdagi, kursdagi) ta’lim oluvchilarning bilimni mustaqil baholay olish ma’suliyatli vazifa bo‘lib, baholash ta’lim oluvchining nafaqat fanni o‘zlashtirishi yoki kognitiv qobiliyatini aks ettiradi, bunda bir qancha ijtimoiy hamda axloqiy jihatlari mavjud. Baholash ta’lim oluvchini jazolash yoki bu orqali ta’lim oluvchiga refleksiv ma’lumot yetkazish uchun emas, balki o‘zlashtirishining mavjud holatini xolis ask ettirishi lozim bo‘ladi.

Pedagogning kasbiy-pedagogik faoliyatida muloqotning o‘rni katta. Ta’lim oluvchilar va ularning ota-onalari, hamkasblar, turli davlat organlari bilan bo‘lib o‘tadigan muloqot pedagogning kasbiy identitetligini namoyish qiladi. Kasbiy identitetlik kasbiy-pedagogik faoliyatning ijtimoiy-axloqiy me’yorlariga qat’iy rioya qilishni taqozo etadi.

Talabalarda kasbiy-pedagogik faoliyatini amalga oshirish davomida o‘z sha’ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro’sini himoya qilishga doir me’yorlarni o‘zlashtirishi pedagogik ta’limda amaliyotga yo‘naltirilgan metodik ta’minotni taqozo etadi. Kasbiy-pedagogik faoliyatning ijtimoiy-axloqiy me’yorlari pedagogik ta’lim o‘quv rejasiga fan sifatida kirirtilmagan bo‘lasda, mutaxassislik fanlari mavzulari mazmuniga singdirilgan. Jumladan, “Pedagogik kompetentlik” fanidagi mavzularda ham ijtimoiy-axloqiy me’yorlar o‘z aksini topgan. Didaktik jihatdan mazkur o‘quv fani mazmuniga ijtimoiy-axloqiy me’yorlarni singdirish imkoniyati mavjud.

Bo‘lajak pedagoglar o‘z kasbiy-pedagogik faoliyatini amalga oshirishda ijtimoiy-axloqiy me’yorlar keng qo‘llanilishiga quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin: ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining (o‘quvchi, ota-ona, hamkasblar, rahbariyat) sha’ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro’sini hurmat qilishi, o‘quv mashg‘ulotlari davomida ta’lim

oluvchilarning bilim darajasini oshirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o’qitish va tarbiyaning ilg’or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanish, ta’lim oluvchilarning psixologik va o’ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan shaxslarni o’qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e’tibor qaratishi va ularni kamsitmasligi, voyaga yetmagan ta’lim oluvchilar bilan ta’lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi, ta’lim tashkilotining ustaviga va boshqa ta’sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga va pedagogik etika qoidalariga rioya etishi, majburiy tibbiy ko’rikdan o’z vaqtida o’tishi va boshqalar. Talabalarda kasbiy-pedagogik faoliyatning ijtimoiy-axloqiy me’yorlarini o’zlashtirishda pedagogik etika qoidalari alohida va muhim ahamiyatga ega. Pedagogik etikani bilish va ularga amal qilish pedagogning o’z kasbiy majburiyatlarini bajarishining sifat ko’rsatkichlarini hamda pedagogning mehnat intizomini belgilaydigan mezondir. Pedagogik etika qoidalarining pedagog tomonidan buzilishi uni mehnat to’g’risidagi qonunchilikka asosan intizomiy javobgarlikka tortish uchun asos bo’ladi.

Kasbiy-pedagogik faoliyatning ijtimoiy-axloqiy me’yorlari keng qamrovli tushuncha bo’lib, dinamik jarayonlarni o’z mazmuniga qamrab oladi. Ta’limning xalqarolashuvi, axborotlashtirish sharoitida faoliyatning ijtimoiy-axloqiy talablari ham ortib bormoqda va bu me’yorlar o’zgarib, jamiyat ijtimoiy-madaniy hayoti ta’sirida mustahkamlanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda bo’lajak o’qituvchilarda ijtimoiy-axloqiy me’yorlarini o’qitish pedagogik zarurat hisoblanib, ilmiy-uslubiy, nazariy-kontseptual jihatdan tadqiq qilish zarurat ekanligini ko’rsatadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O’zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi “Pedagogning maqomi to’g’risi”dagi O’RQ-901-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, <https://lex.uz/docs/-6786401>.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida” gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazas, <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>.
3. O’zbekiston Respublikasi oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 19-oktyabrdagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar” O’zbekiston Respublikasining davlat standartini tasdiqlash to’g’risidagi 35-2021-son buyrug’i // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, <https://lex.uz/docs/-5705038>.
4. Ильин Э.П. Психология взрослости. 2012. – С. 200.
5. Oribboeva D.D. Bo’lajak pedagoqlarda kasbiy-motivatsion sohaning rivojlanganligi ijtimoiy kompetentlikni belgilovchi omil sifatida // “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 8-son, 2023. – B. 132-137.
6. Дьяченко М.И., Кандибович Л.А., Кандибович С.Л. Психология высшей школы. Минск: Харвест. – М.: АСТ, 2001. – С. 576.
7. Сонин Б.А. Учитель как социальный тип личности. – СПб.: Речь, 2007. – 400 с.